

# Andijon davlat tibbiyot institutida mahalla yoshlari o'rtasida futbol bo'yicha musobaqalar o'tkazildi

“Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan Andijon davlat tibbiyot instituti rahbariyati tashabbusi bilan institut sport zalida Andijon shahridagi “Yangi turmush” va Ahmad Yassaviy mahalla fuqarolar yig'inlari hududida yashovchi 2008-2009 yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida sportning futbol turi bo'yicha musobaqalar o'tkazildi.



Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida o'tkazilgan mazkur musobaqada o'smirlar katta qiziqish va faollik bilan ishtirok etdilar.



Eng asosiysi esa, yoshlar sport bilan oshno bo'lib jismoniy chiniqishlari bilan birga bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazdilar.



**ADTI ma'naviyat va ma'rifat, yoshlar bilan ishlash bo'limi**